

XX ASR 30-50 YILLARIDA SURXON VOHASI AHOLISI AN'ANAVIY KIIYIMLARIDAGI TRANSFORMATSION O'ZGARISHLAR

Toshtemirov Shahboz Azamat o'g'li

*Termiz davlat universiteti Etnografiya etnologiya va antropologiya
ixtisosligi tayanch doktoranti*

Эл. почта: toshtemerovshahboz45@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-4203-6440>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning 30–50-yillarida Surxon vohasi aholisining an'anaviy kiyimlarida yuz bergan transformatsion o'zgarishlar tarixiy-etnografik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda kollektivlashtirish, sanoatlashtirish, yengil sanoatning rivojlanishi hamda fabrika mahsulotlarining keng tarqalishi natijasida erkaklar va ayollar kiyimlarining bichimi, konstruktiv tuzilishi, mato turlari va bezak elementlarida sodir bo'lgan o'zgarishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Surxon vohasi, an'anaviy kiyimlar, transformatsion o'zgarishlar, moddiy madaniyat, kiyinish madaniyati, milliy liboslar, tarixiy-etnografik tadqiqot.

Аннотация: В данной статье с историко-этнографической точки зрения проанализированы трансформационные изменения, произошедшие в традиционной одежде населения Сурхандарьинского оазиса в 30–50-е годы XX века. В исследовании освещаются изменения в покрое, конструктивном строении, видах тканей и декоративных элементах мужской и женской одежды, обусловленные советской модернизацией, коллективизацией, индустриализацией, развитием лёгкой промышленности и широким распространением фабричной продукции.

Ключевые слова: Сурхандарьинский оазис, традиционная одежда, трансформационные изменения, материальная культура, культура одежды, национальная одежда, историко-этнографическое исследование.

Abstract: This article provides a historical and ethnographic analysis of the

transformational changes that occurred in the traditional clothing of the population of the Surkhan Oasis during the 1930s–1950s. The study examines changes in the cut, structural design, fabric types, and decorative elements of men's and women's clothing caused by Soviet modernization, collectivization, industrialization, the development of the light industry, and the widespread use of factory-made products.

Keywords: Surkhan Oasis, traditional clothing, transformational changes, material culture, clothing culture, national costume, historical and ethnographic research.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Kiyim insoniyat moddiy va ma'naviy madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u nafaqat tabiiy-iqlim sharoitlariga moslashuv vositasi, balki xalqning etnik xususiyatlari, estetik didi, ijtimoiy mavqei, kasbiy faoliyati hamda tarixiy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim etnomadaniy hodisa hisoblanadi. Har bir xalqning an'anaviy kiyimlari uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanib, turli siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida takomillashib borgan. Shu jihatdan Surxon vohasi aholisining an'anaviy kiyimlarini o'rganish nafaqat moddiy madaniyat tarixini, balki mintaqada kechgan etnomadaniy jarayonlarni yoritishda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi [5; 7; 12].

XX asrning 30–50-yillari Surxon vohasi tarixida chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar sodir bo'lgan davr sifatida ajralib turadi. Sovet hokimiyatining iqtisodiy islohotlari, kollektivlashtirish siyosati, sanoatlashtirish jarayonlari, yangi ta'lim

tizimining joriy etilishi, tikuvchilik sanoatining rivojlanishi hamda fabrika mahsulotlarining keng tarqalishi aholining turmush tarziga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Mazkur jarayonlar natijasida an'anaviy kiyimlarning bichimi, tikilish usuli, mato turlari, bezak elementlari va ularni kiyish madaniyatida transformatsion o'zgarishlar yuz berdi [5; 12; 13].

Surxon vohasi geografik jihatdan qadimdan turli madaniyatlar va etnik guruhlar tutashgan hudud bo'lganligi sababli bu yerda shakllangan kiyinish an'analari o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ayniqsa, vohaning o'troq dehqonchilik hududlari hamda chorvachilik rivojlangan tog'oldi va dasht zonalarida kiyimlarning shakli, funksiyasi va bezaklari o'rtasida muayyan tafovutlar mavjud bo'lgan. Biroq XX asrning ikkinchi choragidan boshlab transport va savdo aloqalarining kengayishi, sanoat mahsulotlarining ommalashuvi hamda davlatning madaniy siyosati ta'sirida ushbu mahalliy xususiyatlar asta-sekin bir xillasha boshladi [1; 5; 12].

Mazkur davrda erkaklar kiyimlarida milliy bichimdagi ko'ylak va yaxtaklarning o'rnini bosqichma-bosqich Yevropa uslubidagi yoqali, tugmali ko'ylaklar, kamzul, shim va boshqa fabrikada ishlab chiqarilgan kiyimlar egallay boshlagan bo'lsa, ayollar kiyimlarida ham yangi bichimlar, fabrika gazlamalari va zamonaviy tikuv texnologiyalarining kirib kelishi kuzatildi. Bunda milliy kiyimlar butunlay yo'qolib ketmadi, aksincha, ular zamonaviy kiyinish madaniyati bilan uyg'unlashgan holda yangi shakllarda rivojlandi [2; 5; 8].

O'zbek xalqining an'anaviy kiyimlari tarixi va evolyutsiyasi O.A. Suxareva, R.Ya. Rassudova, K.I. Antipina, T.S. Abdullayev, U. Abdullayev, H. Ismoilov, S.T. Davlatova, M. Ibragimova kabi olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan. Mazkur ishlarda Markaziy Osiyo xalqlarining kiyimlari genezisi, bichim xususiyatlari, etnik belgilar hamda tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan bo'lsa-da, aynan XX asrning 30–50-yillarida Surxon vohasi aholisi an'anaviy kiyimlarida yuz bergan transformatsion jarayonlar alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o'rganilmagan [1; 5; 7; 12; 13].

Shu munosabat bilan mazkur maqolaning maqsadi XX asrning 30–50-yillarida Surxon vohasi aholisi an'anaviy kiyimlarida yuz bergan transformatsion o'zgarishlarning tarixiy-etnografik omillarini aniqlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sabablarini tahlil qilish hamda erkaklar va ayollar kiyimlarida kuzatilgan yangilanishlarning asosiy yo'nalishlarini ilmiy jihatdan yoritishdan iborat. Tadqiqot natijalari Surxon vohasi moddiy madaniyati tarixini boyitish, o'zbek xalqining an'anaviy kiyinish madaniyati evolyutsiyasini chuqurroq anglash hamda mintaqaning etnomadaniy merosini ilmiy asosda tadqiq etishga xizmat qiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR (МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ / MATERIALS AND METHODS).

Mazkur tadqiqot XX asrning 30–50-yillarida Surxon vohasi aholisi an'anaviy kiyimlarida yuz bergan transformatsion o'zgarishlarni tarixiy-etnografik nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqotning manbashunoslik bazasini arxiv hujjatlari, etnografik dala materiallari, ilmiy adabiyotlar hamda kiyim tarixiga oid maxsus tadqiqotlar tashkil etdi. Ularning o'zaro qiyosiy tahlili orqali an'anaviy kiyimlarning bichimi, konstruktiv tuzilishi, mato turlari, bezak elementlari va ularning vaqt davomida o'zgarish dinamikasi aniqlandi.

Nazariy va tarixiy asos sifatida O.A. Suxarevaning Markaziy Osiyo an'anaviy kiyimlari evolyutsiyasiga bag'ishlangan tadqiqotlari, R.Ya. Rassudovanning o'troq aholi kiyimlari tarixiga oid ishlari, K.I. Antipina, T.S. Abdullayev va H. Ismoilovning o'zbek milliy kiyimlari bo'yicha ilmiy izlanishlari, shuningdek, S.T. Davlatova hamda M. Ibragimovanning Janubiy O'zbekiston va Surxon vohasi an'anaviy kiyimlariga oid tadqiqotlari ilmiy-metodologik asos sifatida xizmat qildi [2; 3; 5–13]. Mazkur manbalar yordamida Surxon vohasidagi kiyinish madaniyati Markaziy Osiyoning boshqa hududlari bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida tarixiylik tamoyiliga qat'iy amal qilinib, kiyimlarning rivojlanishi muayyan tarixiy davrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganildi. Sanoatlashtirish, kollektivlashtirish,

yengil sanoatning rivojlanishi hamda yangi turdagi gazlamalar ishlab chiqarilishining an'anaviy kiyinish madaniyatiga ta'siri tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda baholandi [5; 12; 13].

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy metoddan foydalanilib, XX asr boshlaridagi an'anaviy kiyimlar bilan 1930–1950-yillarda shakllangan yangi kiyim namunalari o'zaro taqqoslandi. Ushbu metod orqali erkaklar va ayollar kiyimlaridagi umumiy hamda o'ziga xos transformatsion belgilar, shuningdek, mahalliy va Yevropa uslubidagi elementlarning uyg'unlashish jarayoni tahlil qilindi [1; 5; 12].

Tarixiy-tipologik metod yordamida kiyimlarning konstruktiv tuzilishi, yoqa shakllari, yeng bichimi, mato turlari, bezak usullari hamda funksional vazifalaridagi o'zgarishlar tizimlashtirildi. Bunda an'anaviy "kiftaki", "yaxtak", kamzul, belbog', do'ppi kabi kiyim turlarining evolyutsiyasi va ularning yangi shakllarga o'tish bosqichlari aniqlandi [2; 5; 8; 13].

Bundan tashqari, etnologiyada keng qo'llaniladigan tavsifiy, interpretativ hamda kompleks tahlil metodlari asosida kiyimlarning etnomadaniy mazmuni, ramziy funksiyalari va ijtimoiy ahamiyati baholandi. Olingan natijalar arxiv materiallari, ilmiy adabiyotlar va dala tadqiqotlari ma'lumotlarini o'zaro solishtirish (triangulyatsiya) orqali tekshirildi. Bu esa tadqiqotning ilmiy ishonchliligini oshirish, subyektiv xulosalarni kamaytirish hamda Surxon vohasi aholisining an'anaviy kiyimlarida XX asrning 30–50-yillarida yuz bergan transformatsion jarayonlarni kompleks yoritish imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA (РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ / RESULTS AND DISCUSSION). Tadqiqot natijalari XX asrning 30–50-yillarida Surxon vohasi aholisining an'anaviy kiyimlarida kuzatilgan transformatsion o'zgarishlar tasodifiy emas, balki mintaqada sodir bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarning bevosita mahsuli ekanligini ko'rsatdi. Kiyim-kechakdagi o'zgarishlar aholi turmush tarzining yangilanishi, sanoat mahsulotlarining ommalashuvi, tikuvchilik texnologiyasining rivojlanishi natijasi sifatida namoyon bo'ldi.

Shu bilan birga, transformatsiya jarayoni an'anaviy kiyimlarning butunlay yo'qolishiga emas, balki ularning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashib, zamonaviy elementlar bilan uyg'unlashishiga olib keldi [5; 12; 13].

1930-yillarga qadar Surxon vohasida erkaklar kiyimlarining asosini to'g'ri bichimli, keng yengli, gorizontal yarim doira shaklidagi yoqali ko'ylaklar tashkil etgan. Bunday ko'ylaklarning yoqa va yeng uchlari jiyak hamda chirozlar bilan bezatilgan bo'lib, ularning konstruktiv tuzilishi Markaziy Osiyo xalqlariga xos tunikasimon bichim an'alarini saqlab qolgan [7; 12]. Mazkur kiyimlar nafaqat amaliy ehtiyojni qondirgan, balki mahalliy estetik qarashlar va etnik identifikatsiyaning muhim belgilaridan biri hisoblangan.

1940-yillarga kelib erkaklar ko'ylaklarining bichimida sezilarli yangilanishlar yuz berdi. Oqartirilgan paxta gazlamalaridan tikilgan, tik yoqali, kashtali va tugmali ko'ylaklar keng tarqala boshladi. Avval bunday kiyimlarni o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari hamda davlat idoralarida ishlovchi ziyolilar kiygan bo'lsa, keyinchalik ular qishloq aholisi orasida ham ommalashdi [5]. Bu jarayon kiyimning ijtimoiy mavqe belgisi sifatidagi funksiyasi o'zgarayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, erkaklar kiyimlaridagi transformatsiya, avvalo, kiyimning tashqi ko'rinishida emas, balki uning konstruktiv yechimida namoyon bo'lgan. An'anaviy yopiq yoqali ko'ylaklar o'rmini oldi ochiq, tugmali va Yevropa uslubidagi ko'ylaklar egallay boshladi. Natijada kiyimlar ishlab chiqarishda qo'lda tikish usullarining o'rniga tikuv mashinalaridan foydalanish kengaydi, bu esa bichimlarning standartlashuviga olib keldi [5; 13].

1930-yillardan boshlab fabrika gazlamalari va tayyor kiyim-kechak mahsulotlarining Surxon vohasiga kirib kelishi an'anaviy kiyimlarning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Avvallari mahalliy to'quvchilik mahsulotlari ustunlik qilgan bo'lsa, keyinchalik sanoatda ishlab chiqarilgan bo'z, satin, chit va boshqa gazlamalar keng iste'mol qilina boshladi [5]. Bu holat kiyimlarning nafaqat tashqi ko'rinishini, balki ularni tayyorlash texnologiyasini ham o'zgartirdi.

Tikuv mashinalarining ommalashuvi natijasida kiyimlarning bichimi murakkablashdi, yoqa, manjet va tugma kabi yangi konstruktiv elementlar paydo bo'ldi. Shu bilan birga, kiyim ishlab chiqarish xarajatlari qisqardi va tayyor mahsulotlar soni ortdi. Arxiv hujjatlarida 1930-yillarda fabrikalarda ishlab chiqarilgan tayyor chopon va boshqa kiyimlarning savdo tarmoqlari orqali aholiga yetkazilgani qayd etilgan [16]. Bu esa an'anaviy uy hunarmandchiligi bilan sanoat ishlab chiqarishi o'rtasidagi nisbatning o'zgarayotganidan dalolat beradi.

Transformatsiyaning eng muhim natijalaridan biri milliy va Yevropa uslubidagi kiyim elementlarining o'zaro uyg'unlashuvi bo'ldi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 1940–1950-yillarda erkaklar milliy kashtali ko'ylak ustidan kamzul yoki kostyum kiyishni odat qila boshlaganlar. Shuningdek, an'anaviy ishton kundalik ustki kiyim maqomini yo'qotib, Yevropa uslubidagi shim ostida ichki kiyim vazifasini bajara boshladi [5].

Kamzulning keng tarqalishi ham mazkur davrning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Dastlab shaharlarda ommalashgan ushbu kiyim turi keyinchalik qishloqlarga ham kirib bordi. Kamzulning bichimi va tikilish usuli mahalliy kiyimlardan farq qilgan bo'lsa-da, u milliy kiyinish madaniyatiga moslashtirilib, mahalliy gazlamalar va bezaklar bilan boyitilgan [2; 5]. Natijada mutlaqo yangi emas, balki sintezlashgan kiyim madaniyati shakllandi.

Ayollar kiyimlarida kuzatilgan o'zgarishlar erkaklar kiyimlariga nisbatan sekinroq kechgan bo'lsa-da, ularning mazmuni yanada chuqurroq bo'ldi. 1930–1950-yillarda ayollar ko'ylaklarining bichimi asta-sekin o'zgarib, to'g'ri yelkali, etakka tomon kengayuvchi yangi shakllar paydo bo'ldi. Fabrikada ishlab chiqarilgan rang-barang gazlamalarning ko'payishi natijasida kiyimlarning rang va bezaklarida ham yangilanish kuzatildi [5; 7].

Ayniqsa, sovet davrida ayollarning ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotdagi faolligining ortishi kiyimlarning funksional jihatdan takomillashishiga sabab bo'ldi. Dala mehnati, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimida faoliyat yurituvchi ayollar uchun qulay, yengil va

amaliy bichimdagi kiyimlar afzal ko'rildi. Biroq bosh kiyimlar, ro'mol o'rash an'analari hamda ayrim milliy bezak elementlari saqlanib qoldi [8; 9].

Tadqiqot davomida an'anaviy kiyimlarning nafaqat tashqi ko'rinishi, balki ularning ijtimoiy va ramziy funksiyalarida ham o'zgarishlar yuz bergani aniqlandi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida kiyim kishining yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli va ijtimoiy mavqeini ifodalovchi asosiy belgilaridan biri bo'lgan bo'lsa, 1930–1950-yillarda bu belgilar asta-sekin zaiflashdi [9; 12].

Davlat muassasalari, maktablar va korxonalarda yagona kiyinish madaniyatining shakllanishi natijasida hududiy va etnik tafovutlar qisqara boshladi. Shu bilan birga, milliy kiyimlar marosimlar, bayramlar va oilaviy udumlarda o'z mavqeini saqlab qoldi. Ayniqsa, chopon, belbog', do'ppi kabi kiyimlar milliy o'zlikning muhim ramzi sifatida kundalik hayotdan marosim madaniyatiga ko'proq ko'chdi [4; 8].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari Surxon vohasida XX asrning 30–50-yillarida kuzatilgan transformatsion o'zgarishlar bir tomonlama "yevropalashuv" jarayoni bo'lmaganini ko'rsatadi. Aksincha, bu davrda mahalliy an'analar, sanoat taraqqiyoti va etnomadaniy moslashuv omillari o'zaro ta'sirga kirishib, an'anaviy kiyimlarning yangi tarixiy sharoitlarga moslashgan shakllarini vujudga keltirdi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, XX asrning 30–50-yillari Surxon vohasi aholisining an'anaviy kiyimlari tarixida tub transformatsion o'zgarishlar yuz bergan muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur o'zgarishlar, avvalo, sanoatlashtirish, kollektivlashtirish, yengil sanoatning rivojlanishi, fabrika gazlamalari va tikuv texnologiyalarining ommalashuvi bilan uzviy bog'liq bo'ldi. Natijada erkaklar va ayollar kiyimlarining bichimi, konstruktiv tuzilishi, mato turlari hamda bezak elementlarida sezilarli yangilanishlar kuzatildi.

Tahlillar erkaklar kiyimlarida transformatsion jarayonlar nisbatan jadal kechganligini ko'rsatdi. An'anaviy

tunikasimon ko‘ylaklar, yaxtak va ishtonlar bosqichma-bosqich Yevropa uslubidagi yoqali, tugmali ko‘ylaklar, shimlar va kamzullar bilan uyg‘unlashdi. Ayollar kiyimlarida esa o‘zgarishlar sekinroq kechgan bo‘lsa-da, yangi bichimlar, fabrika gazlamalari va zamonaviy

tikuv usullarining kirib kelishi natijasida kiyimlarning funksional va estetik xususiyatlari takomillashdi. Shu bilan birga, ro‘mol, do‘ppi, chapon va belbog‘ kabi milliy kiyim unsurlari kundalik turmush va marosim madaniyatida o‘z ahamiyatini saqlab qoldi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Тошкент.
2. Абдуллаев Т.С., Ҳасанов С.А. Одежда узбеков. – Ташкент, 1978.
3. Антипина К.И. Особенности материальной культуры и прикладного искусства южных киргизов. – Фрунзе: Издательство АН Киргизской ССР, 1962.
4. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент.
5. Давлатова С.Т. Қашқадарё миллий кийимлари. – Тошкент.
6. Давлатова С.Т. Ўзбек кийимлари атамалари изоҳли луғати. – Тошкент: Yangi nashr, 2017.
7. Ибрагимова М. Сурхондарё воҳаси аҳолисининг анъанавий кийимлари ва тақинчоқлари. – Тошкент.
8. Исмаилов Х. Анъанавий ўзбек кийимлари. – Тошкент: Фан, 1978.
9. Исмаилов Х. Головные уборы узбеков конца XIX – начала XX века // Общественные науки в Узбекистане. – 1977. – № 6. – С. 49–55.
10. Наливкин В., Наливкина М. Очерк быта женщин оседлого населения Ферганы. – Казань, 1886.
11. Рассудова Р.Я. К истории одежды оседлого населения Ферганского, Ташкентского и Зарафшанского регионов // Материальная культура и хозяйство народов Кавказа, Средней Азии и Казахстана. – Л., 1978.
12. Сухарева О.А. Опыт анализа покровов традиционной «туникообразной» среднеазиатской одежды в плане их истории и эволюции // Костюм народов Средней Азии. – Москва: Наука, 1979.
13. Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма (Самарканд. Вторая половина XIX – начало XX века). – Москва: Наука, 1982.
14. Шаниязов К.Ш. К этнической истории узбекского народа. – Ташкент: Фан, 1974.
15. Ўзбекистон ҳудудида анъанавий этнослараро жараёнлар (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Тошкент: Янги нашр, 2011.
16. Ўзбекистон Миллий архиви. Р-596-жамғарма, 1-рўйхат, 3-иш.
17. Постановление Совета Министров СССР № 2493 и № 2494 от 28 мая 1952 года «Об улучшении качества верхней одежды и головных уборов».